

**BA'ZI MANTIQIY MASALALARINI  
ROSTLIK JADVALI YORDAMIDA YECHISH.**

**Mavlyanov Muminjon Akramovich** – Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi. E-mail: muminjonmavlyan@gmail.com

**O’rozboyev Mirjalol Abdivosi o’g’li** Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi  
E-mail: mirjalol0406@gmail.com

**Anotatsiya** Ushbu maqolada, Oliy o‘quv yurtlarida informatika va raqamli texnologiyalar kursidagi laboratoriya mashg’ulotlarida berilgan: mantiqiy masalalarini rostlik jadvali yordamida yechish yana ushbu maqolada mantiqiy masalalarini hal qilish mavzusi muhokama qilinadi. Unda mantiqiy fikrlashning ahamiyati, mantiqiy masalalarining umumiyligi turlari va ushbu masalalarini hal qilish usullari haqida umumiyligi ma’lumot beriladi. Maqolada mantiqiy muammolar va ularni qanday hal qilish misollari ham keltirilgan.

**Kalitlar so’zlar.** Rostlik jadvali, MS Excel, funksiya, mantiqiy ifodalar, bitlar, formulalar, rost – yolg’on.

Bizga ma’lumki, mantiqiy elementlarni joylarda «VA», «YoKI», «EMAS» kabi mantiqiy amallar bajariladi, axborotlar shu mantiqiy elementlar asosida 0 va 1 raqamlar bilan tavsiya etiladi. Axborotlarni 0 va 1 yordamida tasvirlash raqamli avtomatlarni sintezlashda juda ham qo’l keladi va ularni tahlil qilishni yengillashtiradi.

Ayrim mantiqiy masalalarini xal etishda rostlik jadvali yordamida xal etishni ko’rib chiqamiz.

**1 – masala:** Maktabda turli sinflarda 4 ta do’st o’qiydi: Ali, Bobur, Vali, va G’ani. Ular turli – xil yoshda va turli sinflarda o’qiydi (7-10 sinflarda) va turli to’garaklarga qatnashadi: Matematika, Rabotatexnika, Shaxmat va Futbol. Bizga quyidagilar ma’lum:

- Futbolchi G’anidan katta;
- Ali Validan katta shaxmatchi esa Alidan katta;
- Tanafusda Ali Futbolchi bilan Tennis o’ynadi, shu payt G’ani Rabotatexnik bilan ular qarshisida suxbatlashib o’tirar edi.

Kim Qanday to’garakga qatnashadi.

Masalaga mos rostlik jadvalini tuzib olamiz:

	Matematika	Robotatexnika	Shaxmat	Futbol
Ali				
Bobur				
Vali				
G'ani				

*1-rasm. Masalaga mos rostlik jadvali*

Muloxozalarga moslab jadvalni to’ldirib olamiz,

1-muloxaza Futbolchi G’anidan katta demak G’ani futbolchi emas, G’anini qatoridagi Futbolchi ustiniga 0 raqamini kiritamiz.

2- muloxaz bo'yicha Ali Validan katta shaxmatchi esa Alidan katta G’ani Futbolchi emas, shaxmatchi Alixam emas Valixam emas. G’ani futbolchixam emas Robotatexnik emas, rostlik jadvaliga mos raqamlarni qo'yib to'ldirib chiqamiz.

	Matematika	Robotatexnika	Shaxmat	Futbol
Ali		0	0	0
Bobur				
Vali			0	
G'ani		0		0

*2-rasm. Masalani yechish mobaynida jadv alni ko'rinishi.*

Bundan ko'rinib turibdiki Ali matematika bilan G’ani shaxmat bilan shug’ullanadi. Rostlik jadvalini to’ldirishni davom etamiz.

	Matematika	Robotatexnika	Shaxmat	Futbol
Ali	1	0	0	0
Bobur	0		0	
Vali	0		0	
G'ani	0	0	1	0

*3-rasm. Masalani yechish mobaynida jadv alni ko'rinishi.*

Shaxmatchi G’ani ekanligi va 1 – va 2 – muloxazalardan o’quvchilarni yoshini nisbatini o’sish tartibida joylab olamiz: Vali – Ali – G’ani – Futbolchi. Bundan ko'rinib turibdiki Bobur Futbolchi.

	Matematika	Robotatexnika	Shaxmat	Futbol
Ali	<b>1</b>	0	0	0
Bobur	0		0	<b>1</b>
Vali	0		0	
G'ani	0	0	<b>1</b>	0

i.

Masalani keyingi qadamlari yanada osonlashdi, bo'sh kataklarni kerakli raqmlar bilan to'ldirib olsak, masalani to'liq yechimini qo'lga kiritamiz. Masлага tuzilgan rostlik jadvali quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

	Matematika	Robotatexnika	Shaxmat	Futbol
Ali	<b>1</b>	0	0	0
Bobur	0	0	0	<b>1</b>
Vali	0	<b>1</b>	0	<b>1</b>
G'ani	0	0	<b>1</b>	0

4-rasm. Masalani yechish mobaynida jadv alni ko'rinishi.

**Masalanining javobi:** Vali 7 – sınıf Robotatexnika to'garagiga boradi, Ali 8 – sınıf Matematika to'garagiga qatnashadi, G'ani 9 – sınıf Shaxmat to'garagiga qatnaydi, Bobur 10 – sınıf Futbol to'garagiga qatnaydi.

Mantiqiy masalalarni rostlik jadvali yordamida yechish o'z navbatida talabalarga, kompyuterda mantiqiy masalalarni qanday xal qilish bo'yicha tessavur xosil qiladi.

Keyingi masalani ko'rib chiqsak:

**2 - masala** Savdo firmasining 3 ta A, B, C bo'limlari tomonidan yil yakunida yuqori foyda olish bo'yicha raqobatlashishdi. Iqtsodchilar quyidagi muloxazalarni ilgari surishdi.

1. Agar A yuqori foyda olsa, B va C ham yuqori foyda oladi.
2. A va C bo'limlar bir vaqtning o'zida yuqori foyda olishadi yoki yo'q.
3. C bo'limning yuqori foyda olish sharti B bo'limning yuqori foyda olishidir.

Yil yakuniga ko'ra 3 muloxazadan biri yolg'on ikkitasi rost ekanligi ma'lum bo'ldi.

**Masala sharti:** qaysi bo'linma yuqori foyda olgan ?

Barcha taxminiy natijalarni tuzib chiqamiz.

"A" - yuqori foyda oladi:



“B” – yuqori foyda oladi:

“C” – yuqori foyda oladi.

Iqtsodchilarning muloxazalarini mantiqiy algebra tilida yozib olamiz:

$$1) \quad F_1 = A \rightarrow B \& C;$$

$$2) \quad F_2 = A \& C \vee \bar{A} \& \bar{C};$$

$$3) \quad F_3 = C \rightarrow B$$

Masalani yechish uchun  $F_1$ ,  $F_2$ ,  $F_3$  lar uchun rostlik jadvalini tuzib olamiz:

Bo’linmalar uchun barcha variantlarni kiritib olamiz:

A	B	C	$F_1$	$F_2$	$F_3$
0	0	0			
0	0	1			
0	1	0			
0	1	1			
1	0	0			
1	0	1			
1	1	0			
1	1	1			

*1-rasm. Rostlik jadvali.*

Keyingi qadamlarda barcha muloxazalarga qarab rostlik jadvalini davom ettiramiz

A	B	C	$F_1$	$F_2$	$F_3$
0	0	0	1	1	1
0	0	1	1	0	0
0	1	0	1	1	1
0	1	1	1	0	1
1	0	0	0	0	1
1	0	1	0	1	0
1	1	0	0	0	1
1	1	1	1	1	1

*2-rasm. Rostlik jadvali.*



**Javob:** F1, F2, F3 uchta mulohazadan biri yolg'on, qolgan ikkitasi haqiqat bo'lib chiqadi. Bu holat jadvalning to'rtinchi qatoriga to'g'ri keladi. Demak bundan kelib chiqadiki masala yuqori foydani B va C bo'inmalalr qo'lga kiritadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytsak Mantiqiy masalalarni xal qilishda rostlik jadvalidan foydalanish masalalarni yechimiga tezroq olib kelish va masalalarni yechishada talabalarni barchasini qamrab olish bilan ajralib turadi. Mantiqiy masalalar kompyuterda qay tarzda xisoblanishi axbarotlarni kompyuterda tasvirlanishi va ularni mantiqiy asosi haqida ilk tessavurlarni beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Игошин В.И. Дидактическое взаимодействие логики и математики //Педагогика. 2002. № 1. С. 51-56.
2. Маркова АХ и др. Формирование мотивации учения: Кн. для учителя/ А.К. Маркова, Т.А. Матис, А.Б. Орлов. - М.: Просвещение, 1990. - 192 с. - (Психол. наука - школе)
3. Jumayev M.E. « Matematika o'qitish metodikasidan praktikum ». – T . 2003-yil.
4. Z. Ilyasova, U Asanova, Informatika O'quv qo'llanma. Toshkent 2018 y.